

YO'SHLARNI TABIYASIDA HARBIY VATANPARVARLIK -BUYUK JASORAT  
NA'MUNASI

*Farg'onan Davlat Universiteti*

*Harbiy ta'lif fakulteti*

*Unumqoshin tayyorgarlik sikli*

*katta o'g'tuvchisi rezervdagi podpolkovnik*

**O.M.Xamrakov**

*Farg'onan Davlat Universiteti*

*Harbiy ta'lif fakulteti 2-bosqich*

*22.124-gugruh kursanti*

**Egamberdiev Kamoliddin Ahrorjon o'g'li**

**Annotatsiya:** Maqolada harbiy-vatanparvarlik g'oyasining jamiyatda tutgan o'rni va ahaniyati xususida so'z yuritilgan. Bu g'oyaning shakllanish bosqichlari, usullari haqida ilmiy-nazariy ma'lumotlar keltirilgan. Vatanparvarlik tuyg'usining tub mohiyati, ildizlari qayerga va nimalarga borib taqalishi haqida atroflicha xulosalar mayjud. Yoshlarni vatanga sadoqat, muhabbat ruhida tarbiyalash, o'sib kelayotgan avlodning qalbida jasorat va ajdodlar xotirasiga hurnat uyg'otish bo'yicha ko'plab fikr-mulohazalar yuritilgan. Maqolada bu masalaning bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni dolzarbligiga e'tibor qaratilganligining ilmiy va amaliy na'munalari berilgan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, qurolli mojarolar, jamiyat, qahramonlik, jasorat, qonun, adolat, vatanga muhabbat, sadoqat.

Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, "Xalq va armiya – bir tanu, bir jondir!" degan ezgu g'oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas'ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g'oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilmoqda.

"Vatan" tushunchasi azaldan buyuk qudratga ega. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish fuqarolik jamiyatida asosiy tarbiya tamoyili hisoblanadi. Vatanparvarlik-kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Bu tuyg'u vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.<sup>1</sup> Bugungi kunda harbiy- vatanparvarlik g'oyasini yoshlar orasida tatbiq etish yo'lida ko'plab ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda. Bunga sabab ta'lif muassasalarida va harbiy qismlarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini prinsipial jihatdan yangicha yondashuv asosida yo'lga qo'yish va tizimga solishga hayotiy muhim ehtiyoj sezilayotganidir.

Har qanday og'ir va murakkab vaziyatda Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog'liq eng muhim tushunchalarni, hayotiy va

professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifat, shuningdek, milliy qadriyatlar asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish orqali vatanparvar, sadoqatli hamda shijoatli yoshlarni kamol toptirish Konsepsiyaning asosiy mohiyatini tashkil etadi.

Yoshlarning Qurolli kuchlar safidagi xizmatida, armiyaga muhabbat, Vatanni himoya qilish uchun zarur bo'lgan xislatlarni tarbiyalashda badiiy adabiyot, kino, teatr va tasviriy san'atning ahamiyati katta. Harbiy xizmatga tayyorlash va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilishga tayyorlash tizimining asosiy qismi hisoblanadi. Harbiy xizmatga tayyorlash jarayonida yoshlar O'zbekiston Respublikasi "Mudofaa haqida"gi qonunini, Konstitutsiyani o'rganadilar.<sup>2</sup> Tariximizda buyuk ajdodlarimiz, xalq qahramonlarining o'chmas nomi, o'lmas jasoratlari xususida aniq faktlar mavjud bo'lib, biz ularning kim ekanliklarini, nima sababdan jonlarini xatarga qo'yib jang qilganliklarini badiy, tarixiy adabiyotlarni o'rganish, shu mavzudagi kinofilmarni tomosha qilish, moziydan so'z ochuvchi ko'hna muzeylarga borish orqali bilib olamiz. Adabiyot insonni Vatanni himoya qilishning ming yillik an'analar haqida chuqur fikr yuritishga undaydi, Ona yurt mustaqilligi uchun olib borilgan tarixiy janglar qahramonlari bilan faxrlanish, dushmanlardan, chirkin jinoyat olamidan nafratlanish hissini uyg'otadi. Xalqning buyukligini ko'rsatadi. Malika To'maris, cho'pon Shiroq, Spitamen, Muqanna, A.Temur, Ulug'bek, Z.Bobur, S.Rahimov obrazlari o'quvchi yoshlar uchun na'muna maktabi bo'lib xizmat qiladi. Badiiy adabiyot

Badiiy adabiyot – inson faoliyatining mahsuli. Inson faoliyati esa keng va serqirradir. Inson faoliyati bir-biriga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan „mehnat faoliyati“, „ruhiy faoliyat“, „estetik faoliyat“ kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

Boz ustiga, ruhiy faoliyatning o'zi „aqliy“, „hissiy“, „ruhoniy“ faoliyat qirralarini namoyon etadi. Badiiy adabiyot insonning go'zallik qonunlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati mahsulidir. Shunday ekan, badiiy adabiyotni ta'riflashda biryoqlamalikka yo'l qo'yish, uni faqat ijtimoiy ong yoxud faqat san'at hodisasi sifatida tushunish predmetning mohiyatini jo'nlashtiradi, bizni uning tabiatini anglashdan uzoqlashtiradi.

Hatto hozir ham Vatan himoyasiga qaratilgan plakatlarga hayajonlanmasdan qarab turishning ilojiyo yo'q. OAV orqali uzatilgan eshittirishlarni eshitgan odamlarning ko'zlarida yosh qalqqan. "Tiriklar va o'liklar", "Ular Vatan uchun jang qilganlar", "Dushman orqasidagi urush" kabi asarlarda mardlik, mashaqqatli kunlarda bukilmagan sabot kuylangan. "Ular Vatanni himoya qiladilar", "Soat yarim kechada to'xtadi", "Farhodning jasorati", "26 chisi otilmasin", "Ilhaq", "101 qahramon" nomli kinofilmardan nafaqat jasur harbiylar, balki urush frontlari ortida askarlar bilan birday qora urushni yengish uchun, erk uchun, oilasi, yurti uchun kurashgan oddiy aholi haqida ham bilib olamiz. Prezidentimiz aytganlaridek: "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor."<sup>3</sup>

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi mamlakatimizda amalgaloshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyil va ustuvor yo'nalishlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo'llari, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o'zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda

belgilab beradi. Konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid mayjud tizimga tanqidiy baho berilib, uni mamlakatimizni 2021-2026 yillarda rivojlantirish bo'yicha tarraqiyot strategiyasi talablari asosida milliy va jahondagi ilg'or tajribalar, bugungi O'zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Ona Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, avaylash, uni dunyoga tanitish bilan bog'liq tushunchalar, hayotiy va tajribaviy ko'nikmalarni ilm va ma'rifat nurlari orqali yoshlarning qalbi va ongiga bolalik davridanoq singdirib borish va shu tariqa O'zbekistonning haqiqiy vatanparvar fuqarolarini yetishtirish Konsepsiyaning asosiy ma'nomazmunini tashkil etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday ta'kidlaydi: "Biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Bu jarayon milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasiga, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanadi". Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning bir qator usullari mayjud bo'lib.

Ular: ishontirish, mashq qildirish va mustaqil ishlash, kuzatish, rag'batlantirish, o'rnak ko'rsatish hamda shaxsiy na'muna. Rang-barang ma'naviy-ma'rifiy ishlar, sog'lom ijtimoiy muhit ham bu maqsadning amalga oshishida ahamiyatga molik hisoblanib, harbiy xizmatchi va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g'olib bo'lishgan shaxslar bilan uchrashuvlar, ilmiy-nazariy, amaliy konferensiyalar, seminar-terninglar, muayyan mavzuga bag'ishlangan kechalar, bahs-munozaralar, viktorinalar, davra suhbatlari; to'plangan ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish; jamoatchilik fikri va harbiy jamoalardagi ma'naviy-ruhiy muhitni o'rganish; teleko'rsatuv, radioeshittirishlar, film va multfilmlar, askar qo'shiqlari, ommaviy axborot vositalari va shu kabilar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi - mamlakatda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyil va ustuvor yo'nalishlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo'llari, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o'zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi.<sup>4</sup>

Abu Nasr Farobi inson kamolotini vatanparvarlik bilan bilan bog'laydi va "Olloh in'om etgan aql ne'matidan mayjud imkoniyat darajasida foydalanmasdan turib, yetuk inson martabasiga erishib bo'lmaydi. Chunki inson taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakunidir" deb e'tirof etadi. Shunday ekan haqiqiy vatanparvarlik faqat yetuk insongagina xos bo'lishi mumkin.<sup>5</sup>

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz mudofaasini mustahkamlash masalalarini muvaffaqiyatli xal etish yoshlarni tarbiyasi, siyosiy ongi, mehnat faoliyati va ililmiy-texnika rivojlanishi tezligi bilan chambarchas bog'liqidir. Ona zaminga, ajdodlar yaratgan meroslar asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar va tajribalarga tayangan holdagina vatanparvar yoshlarni tarbiyalash mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ayтиб о'tganidek: "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI-asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda". Yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda nafaqat milliy qadriyatlarni, balki milliy mafkuraning o'rni ham beqiyos.

Yoshlarda mafkuraviy tushunchalarni shakllantirish davomida, unga bo'lgan ishonchini ham o'stirish lozim.<sup>6</sup>

Erkka intilish, ozod yashashga bo'lgan ehtiyoj insonga xos bo'lgan tuyg'udir. Inson o'z vatanidagina ozod va erkin yashay oladi. Shu bois vatan ozodligi uchun kurashish masalasi qadim-qadimdan allomalarining asarlari va ezgu g'oyalarini ifoda etuvchi ta'limotlarning bosh mavzusi bo'lib kelgan va bu Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asariga bejizga ushbu iboralarni kiritmaganining isbotidir: "Har bir kishining tug'ulub o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ulgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi - tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan - uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohatda yashamas."<sup>7</sup>

**ASOSIY ADABIYOTLAR:**

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. 65-bet
2. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston". Toshkent. 2017. 482-bet
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konseptsiyasi"ni tasdiqlash to'g'risidagi 2018-yil. 23-fevral 140-son qaroriga ilova
4. Хамракулов, У. М., & Тожиев, Х. Х. (2020). Воспитание учащихся образовательных учреждений в духе патриотизма и любви к родине. international journal of discourse on innovation, integration and education, 1(4), 41-43.
5. Хамракулов, У. М. (2022). Места инновационных-педагогических технологий и развитие дистанционного (электронного) обучения при подготовке кадров начального военного обучения. o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 1(12), 1055-1060.
6. Хамракулов, У. М. (2023). Дистанционное обучение в системе высшего образования: проблемы и перспективы. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(1), 406-416.
7. Хамракулов, Ў. М. (2022). Конституция-мустақил ҳаётимизнинг асосий мезони! конституция-юрт қомуси!. ijodkor o'qituvchi, 2(24), 122-136.

**QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:**

1. Mamatov O. Vatanparvarlik - milliy istiqlol mafkurasining muhim tarkibiy qismi. Toshkent-2001-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.06.2023 yildagi 267-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.